

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

| | |
|--|------------------|
| S.MAHMUDOVA | |
| “Turgʻunoy Egamberdiyeva – Fargʻonalik ayollarning gultojidir” | 6 |
| | PEDAGOGIKA |
| X.Kadirov, B.Xamdamov | |
| Oliy taʼlim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati | 8 |
| L.Yoʻldosheva | |
| Muzeylarda turli xil mashgʻulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish | 13 |
| M.Alimjanova | |
| Taʼlimning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari | 17 |
| B.Xaydarov | |
| Odam tana tuzilishini tahlil qilish..... | 23 |
| G.Absalamova | |
| Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiyasi tushunchasi..... | 28 |
| F.Mirzayeva | |
| Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi..... | 32 |
| | IQTISODIYOT |
| T.Xaydarov, B.Karimov | |
| Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi | 36 |
| | FALSAFA, SIYOSAT |
| N.Hakimov, D.Amrudinova | |
| Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari..... | 40 |
| I.Raximov | |
| Oʻzbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon koʻp millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari | 48 |
| R.Isamutdinov | |
| “Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati..... | 54 |
| S.Xoliqov | |
| Oʻzbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni taʼminlash boʻyicha vazifalarining oʻziga xos jihatlari | 57 |
| | TARIH |
| M.Xurramov | |
| 1991 - 2016 yillarda Oʻzbekiston-Qozogʻiston munosabatlarida Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari | 61 |
| R.Arslonzoda | |
| Istiqlol yillarida Oʻzbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi | 69 |
| I.Gʻulomov, Z.Kasimova | |
| Oʻzbekiston SSR aholisini roʻyxatga olish | 76 |
| Gʻ.Haydarov | |
| Fargʻona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi | 83 |
| G.Dadamirzayeva | |
| Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Fargʻona viloyati artellarining faoliyati..... | 88 |
| A.Abduali | |
| Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili..... | 93 |
| N.Komilov | |
| Turkiston muxtoriyati bosh vaziri oʻrinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari..... | 98 |
| M.Darmonova | |
| “Katta qirgʻin”ning yosh qurboni..... | 103 |
| L.Sokolova | |
| Fargʻona vodiysi: ustozga bagʻishlanish marosimining shakllari | 107 |
| O.Zaripov | |
| “Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi | 113 |

“XAVFSIZ MAHALLA” TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

ПОНЯТИЕ И ЗНАЧЕНИЕ «БЕЗОПАСНАЯ МАХАЛЛЯ»

THE CONCEPT OF "SAFE MAHALLA" AND ITS ESSENCE

Isamutdinov Ravshan Raxmonovich

Isamutdinov Ravshan Raxmonovich

– *mustaqil izlanuvchi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Kotibiyati Saylov qonunchiligi va zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha o‘quv markazi direktori o‘rinbosari.*

Annotatsiya

Maqolada “Xavfsiz mahalla” tushunchasining mazmun-mohiyati qisqacha yoritib berilgan. Shuningdek, muallif maqolada “Xavfsiz mahalla” tushunchasining mazmun mohiyatini anglash va ilmiy tadqiq etishda, unga ta’sir etuvchi demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va ijtimoiy-ma’naviy omillarni ayrim jihatlari ochib bergan.

Аннотация

В статье кратко описывается понятие «Безопасная махалля». Также автор разъясняет в статье некоторые аспекты демографических, социально-экономических, географических и социально-духовных факторов, влияющих на понимание и научное изучение понятия «Безопасная махалля».

Abstract

The article is devoted to the revealing the concept of "safe mahalla". The author also explains in the article some aspects of demographic, socio-economic, geographical as well as social and spiritual factors that affect the understanding and scientific study of the concept of "safe mahalla".

Kalit so‘zlar: *xavfsiz mahalla, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va ijtimoiy-ma’naviy.*

Ключевые слова: *безопасная махалля, демографические, социально-экономические, географические и социально-духовные.*

Key words: *safe mahalla, demographic, socio-economic, geographical and social and spiritual.*

KIRISH. Bugungi kunda mamlakatimizda aholi tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada ko‘plab qonun hujjatlari, chora-tadbirlar va bir qator yangi tizimlar ishlab chiqilmoqda hamda amaliyotga joriy qilinmoqda.

Jumladan, respublikamizda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlash borasida “Xavfsiz mahalla” tamoyili asosida huquq-tartibot organlari tomonidan mahallabay ishlar tashkil qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev (2021-yil 24-oktyabr) Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga bayram tabrigida, “Xavfsiz mahalla” va “Xavfsiz hudud” tamoyillari asosida ichki ishlar organlarining Milliy gvardiya va mahalla jamoatchiligi bilan hamkorlikdagi ishlari qisqa vaqt ichida o‘zining ijobiy natijasini berayotgani biz uchun katta ahamiyatga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Hududlardagi kriminogen vaziyatni chuqur tahlil qilish, jinoyatlarning dinamikasi va sodir etilishiga ta’sir qilayotgan omillarni aniqlash va “ilmiy diagnoz” qo‘yish orqali jinoyatchilikni prognozlash va uning oldini olishga alohida e’tibor qaratilmoqda.[1] – deb ta’kidladi.

Mavzuga oid ADABIYOTLAR tahlili. “Xavfsiz mahalla” tushunchasi hozirgi kunda kundalik hayotimizda keng qo‘llanilishiga qaramay, bu tushuncha fan uchun yangi bo‘lib, bu haqida huquqshunos olimlar va mutaxassislar tomonidan yetarlicha yoritilmagan.

Shuningdek, amaliyotda “Xavfsiz mahalla”, “Xavfsiz hudud” va “Xavfsiz makon” kabi atamalar sinonim tarzida qo‘llanilib kelinmoqda.

Shu bois, biz mazkur tushunchalarni o‘rganar ekanmiz, aslida xavfsiz mahalla atamasi xavfsiz va mahalla so‘z birikmalaridan tashkil topgan bo‘lib, “xavfsiz” so‘zi arabcha – xavf so‘zining o‘zagidan olingan bo‘lib xavf tug‘dirmaydigan va xatarsiz [2] ma’nolarini anglatadi.

Xavfsiz so‘zidan farqli o‘laroq, mahalla arabcha so‘z bo‘lib – joy, o‘rin, makon ma’nolarni bildirib, shaharning ma’lum bir hududni o‘z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, o‘zini-o‘zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy-hududiy bo‘lagi [3] hisoblanadi.

Shu bilan birga, manbalarda xavfsiz mahalla tushunchalari soʻz birikma sifatida tushunish va shunga mos tarzda turlicha talqin qilinmoqda. Buning asosiy sababi qonunchilikda, ADABIYOTLARda va boshqa hujjatlarda (idoralararo qoʻshma qaror, chora-tadbirlar rejasi, dastur va hokazo) mazkur atamalar juda koʻp ishlatilishiga qaramasdan, ushbu hujjatlarda tushunchalarga taʼrif berilmagan.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, tinchlik va barqarorlik xavfsizlik taʼminlangandagina vujudga keladi. Bu oʻz navbatida xavfsizlikni taʼminlash uchun majmuaviy yondashish lozimligini koʻrsatadi. [4] Chunki xavfsizlikning ijtimoiy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ekologik, texnik kabi turlari mavjud boʻlib, bizningcha ular, barqarorlikka, uni taʼminlashda vosita sifatida xizmat qiladi. [5]

Shu oʻrinda aytish lozimki, xavfsizlikni sohalari turli-tuman boʻlib, har bir xavfsizlikni sohasi maʼlum bir ijtimoiy xavflilik darajalarni bartaraf etishga qaratilganidir.

Odatda, xavfsizlikni koʻlamiga koʻra tasnifida eng quyi pogʻonasida mahalliy xavfsizlik turadi desak adashmagan boʻlamiz. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va oʻzgarishlar asosan xavfsizlik koʻlamini kichik bir hudud yaʼni mahalla darajasida koʻrib chiqishni taqozo etmoqda.

Endilikda, muayyan hodisa yoki voqeani xavfsizlik obyektiga bevosita ziyon yetkazish qobiliyatiga ega boʻlib, tahdid koʻrinishiga oʻtishidan oldin uni mahalla miqyosida oldini olish boʻyicha uzoq muddatli iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shu kabi chora-tadbirlar tizimini joriy qilish zaruriyati paydo boʻlmoqda.

Xususan, respublikamizdagi mavjud 9 314 ta [6] mahallaning oʻziga xos xususiyati, imkoniyati, geografik joylashuvi, hududda paydo boʻlgan xavf-xatar va tahdidlari namoyon boʻlishi hamda muammolarni kelib chiqishini ilmiy jihatdan oʻrganish darkor.

2021-yilda jinoyatchilik tahlili shuni koʻrsatdiki, respublikamizning Fargʻona viloyati, Qoʻqon shahridagi “Sumbula” (437 ta) va Toshkent shahri, Bektemir tumanidagi “Nurafshon” (341 ta) eng koʻp jinoyat sodir etilgan mahalla hududi sifatida qayd etildi.

Agarda mazkur mahalla hududidagi jinoyatchilik statistikasini qiyosiy tahlil qiladigan boʻlsak, masalan Qoʻqon shahridagi “Sumbula” (437/413) mahallasi hududidagi jinoyatlar respublikamizning 8 ta [7] tuman-shahar hududida sodir etilgan jinoyatlardan ortiqni tashkil qilganligini koʻrishimiz mumkin.

Yuqoridagi mavjud holat va statistik tahlillardan kelib chiqib, xavfsiz mahallani taʼminlashga taʼsir etuvchi omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1) demografik omillar: aholi soni, uning oʻsishi, zichligi, migratsiya jarayonlari, jinsi, yosh tarkibi, tugʻilishi va hokazo;


2) ijtimoiy-iqtisodiy omillar: hududning “oʻsish nuqta”si, yaʼni drayverining rivojlanganligi, ijtimoiy xizmat koʻrsatuvchi obyektlar joylashganligi, qishloq xoʻjaligi, sanoat ishlab chiqarish, qurilish ishlari va hokazo;

3) geografik omillar: hududning geografik oʻrni, mahallalarning shaharda, tuman markazida, tuman markazigacha 30 km boʻlgan masofada, tuman markazidan 30 km va undan olis masofada, togʻli va choʻl hududida, chegara (yoki anklav) hududda joylashganligi va hokazo;

4) ijtimoiy-maʼnaviy omillar: diniy bagʻrikenglik va millatlararo totuvlik, aholining hayotida norozilik kayfiyati hamda boshqa salbiy holatlarning paydo boʻlishi va boshqalar kiradi (1-rasm).

Mazkur omillar “Xavfsiz mahalla” tushunchasini ijtimoiy hayotda kompleks tizimli tahlil qilish hamda turli yoʻnalishlarda kelib chiqishi mumkin boʻlgan xavf-xatarlarni oldini olishda doimiy ravishda tadqiq etish muhim hisoblanadi.

XULOSA. Demak xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xavfsiz mahalla tushunchasining mazmun mohiyatini anglash va ilmiy tadqiq etishda, unga taʼsir etuvchi demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va ijtimoiy-maʼnaviy omillarga alohida eʼtibor bergan holda kompleks oʻrganishni talab etadi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev. Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga bayram tabrigi 2021-yil 24-oktyabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4719>.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. T – 2006. – B.372.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. T – 2006. – B.572.
4. R.Samarov, K.Haydarov, Axborot xavfsizlik psixologiyasi (O'quv qo'llanma) – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 91 b.
5. Xaydarov K. Tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda axborot: siyosiy-psixologik jihat // O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti Axborotnomasi. №2. – Toshkent: 2018. – B. 34-37.
6. Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi ma'lumotlari 2021-yil 12 oy yakuni.
7. 8 ta tuman-shaharlar: Bo'zatov (21), Yangiobod (45), Korauzyak (46), Taxtakopir (48), Tomdi (60), Shirin shahar (62) Shumanay (62), Mo'ynoq (69).